Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 92-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA HUDUDIY KLASTERLARNING INNOVATSION RIVOJLANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Andijon davlat texnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: nematjon19602408@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy klasterlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Klasterlarning hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlarining klaster subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiya, axborot almashinuvi, texnologik integratsiya va innovatsiyalarni joriy etishga ta’siri tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: klaster, raqamli iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, innovatsiya, raqamli transformatsiya, raqobatbardoshlik, kooperatsiya, inson kapitali, innovatsion infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития региональных кластеров в контексте цифровой экономики. Подчеркивается важность кластеров в обеспечении регионального экономического роста, повышении конкурентоспособности предприятий, ускорении инновационной деятельности и создании новых рабочих мест. Также анализируется влияние процессов цифровизации на сотрудничество, обмен информацией, технологическую интеграцию и внедрение инноваций между кластерными субъектами.
Ключевые слова: кластер, цифровая экономика, региональное развитие, инновации, цифровая трансформация, конкурентоспособность, сотрудничество, человеческий капитал, инновационная инфраструктура, государственно-частное партнерство.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the development of regional clusters in the context of the digital economy. The importance of clusters in ensuring regional economic growth, increasing the competitiveness of enterprises, accelerating innovative activity and creating new jobs is highlighted. The impact of digitalization processes on cooperation, information exchange, technological integration and innovation implementation between cluster entities is also analyzed.
Keywords: cluster, digital economy, regional development, innovation, digital transformation, competitiveness, cooperation, human capital, innovative infrastructure, public-private partnership.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish va hududiy iqtisodiy tizimlarni boshqarishning yangi mexanizmlarini shakllantirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, logistika va boshqaruv jarayonlariga keng joriy etilishi hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda.

Mazkur sharoitda hududiy klasterlar iqtisodiy subyektlar o‘rtasida ishlab chiqarish, texnologik va innovatsion hamkorlikni ta’minlovchi samarali iqtisodiy tuzilma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Klaster yondashuvi korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim tashkilotlari hamda davlat boshqaruvi organlari

o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni shakllantirish orqali hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

M. Porterning klaster nazariyasiga ko‘ra, geografik jihatdan yaqin joylashgan va o‘zaro bog‘liq korxonalar hamda tashkilotlarning birlashuvi innovatsiyalar, mehnat unumdorligi va raqobat ustunliklarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa ushbu munosabatlar an'anaviy geografik yaqinlik bilan cheklanib qolmay, raqamli platformalar orqali kengayib bormoqda.

M. Poterning fikricha “Klaster bu hududiy (geografik) jihatdan bir-biriga qo‘shni, o‘zaro bog‘langan, ma’lum sohada faoliyat ko‘rsatuvchi, umumiy maqsad yo‘lida bir-birini to‘ldiruvchi kompaniya va u bilan bog‘liq tashkilotlar guruhidir”[6]. Raqobatbardosh kompaniya milliy iqtisodiyot sohasi raqobatbardoshligini shakllantiradi, raqobatbardosh soha esa o‘z navbatida dunyo bozorida mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlaydi va saqlab turadi.

Dastlab klaster sanoat ishlab chiqarishiga tatbiq qilingan va uning asoschilari Marshall va Yastremskiy, Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish uchun sanoat klasterlari g‘oyasini ommalashtirgan olimlar bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududiy klasterlarning shakllanishi, rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, klasterlar hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi.

Klaster nazariyasining shakllanishida ingliz iqtisodchisi Alfred Marshallning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Olim o‘zining “Iqtisodiy fanlar prinsiplari” asarida ishlab chiqarish korxonalarining hududiy joylashuvi, ixtisoslashuvi va o‘zaro yaqin faoliyat yuritishining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini asoslab bergan. Marshall tomonidan ilgari surilgan sanoat hududlari konsepsiyasi keyinchalik hududiy klasterlar nazariyasining shakllanishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan [5].

Klaster nazariyasining zamonaviy rivojlanishida amerikalik iqtisodchi olim Maykl Porterning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Uning “Xalqaro raqobat” asarida klasterlar geografik jihatdan yaqin joylashgan, o‘zaro bog‘liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va tegishli institutlar majmuasi sifatida izohlanadi. Porterning fikricha, klasterlar korxonalar o‘rtasidagi raqobat va hamkorlikni uyg‘unlashtirish orqali mehnat unumdorligi, innovatsion faollik va raqobat ustunliklarini rivojlantirish imkonini beradi [3]. Mazkur yondashuv hududiy klasterlarni iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida o‘rganishga asos yaratadi.

M. Enright tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hududiy klasterlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, mintaqaviy ixtisoslashuv va biznes tarmoqlarining shakllanishi masalalariga e’tibor qaratilgan. Olim hududiy klasterlarni mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, korxonalar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq jarayon sifatida tadqiq etadi [4]. Ushbu yondashuv klaster rivojlanishida nafaqat ishlab chiqarish omillari, balki hududiy institutsional muhit va iqtisodiy hamkorlikning ham muhimligini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlardan A. Soliyev va Z. Hakimovlarning tadqiqotlarida klaster nazariyasining amaliy jihatlari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan. Mualliflar klaster tizimini hududiy ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish va mintaqaviy iqtisodiy salohiyatdan foydalanish vositasi sifatida baholaydilar [2].

N. Saidaxmedovning ilmiy tadqiqotlarida ham klaster tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni alohida yoritilgan. Jumladan, olimning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda klaster tizimining ahamiyatiga bag‘ishlangan tadqiqotida klasterlar orqali tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqilgan [8]. Shuningdek, sanoat klasterlarining shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan ishida klasterlashuv jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan [10].

Biroq raqamli transformatsiya sharoitida klaster subyektlari o‘rtasidagi raqamli integratsiya, yagona axborot platformalarini shakllantirish, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish orqali innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini o‘rganishda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-mantiqiy tahlil, umumlashtirish va sintez usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida hududiy klasterlar o‘zaro bog‘liq iqtisodiy subyektlar majmuasi sifatida o‘rganildi. Bunda ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, logistika markazlari va davlat boshqaruvi organlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaraldi. Qiyosiy tahlil usuli orqali an'anaviy klaster boshqaruvi va raqamli texnologiyalarga asoslangan klaster boshqaruvi o‘rtasidagi farqlar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarni rivojlantirishning asosiy mexanizmlari tizimlashtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, klasterlarning zamonaviy iqtisodiy sharoitdagi samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish quvvatlariga, balki raqamli infratuzilma, innovatsion

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

hamkorlik va boshqaruv texnologiyalarining rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liq.

Hududiy klasterlarni innovatsion rivojlantirishning quyidagi mexanizmlari taklif etiladi.

Klaster – muayyan yo‘nalishda o‘zlashtirilgan ishlab chiqarish yoki hizmat ko‘rsatish sohasining o‘zgaruvchan elementidir. Klaster - bitta sohaga birlashgan va bir – biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan korxonalar guruhidir[10].

1-jadval

Klasterlarining afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
logistika sohasidagi muammolarini hal qilish va muhandislik, menejment va boshqalarda yondashuvlarni tiplashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish; qo‘shimcha yuqori malakali ish o‘rinlarini yaratish; soliq imtiyozlarini oshirish; klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar manfaatlarini himoya qilish; yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratish; bozorni rivojlantirish bo‘yicha harakatlarni muvofiqlashtirish; yuqori eksport salohiyati.	zaiflik. Ixtisoslashuv mintaqada zaiflikni keltirib chiqaradi. Texnologik uzilishlar klasterning o‘ziga xos afzalliklariga putur yetkazadi; moslashuvchanlik. Qattiq mavjud tuzilmalar tubdan qayta yo‘naltirishni kechiktirishi va majburiy qayta qurishning oldini olishi mumkin; raqobat bosimining pasayishi. Hamkorlik raqobat bosimi va innovatsiyalarning harakatlantiruvchi kuchining pasayishiga olib keladi; o‘z-o‘zini ta’minlash sindromi. O‘tmishdagi muvaffaqiyatlarga tayanib, klaster o‘zgaruvchan tendentsiyalarni taniy olmaydi; ichki pasayish. Ijtimoiy kapital faoliyat asoslarini rivojlantirish uchun zarur, lekin uni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tuzilmani buzadi va yo‘q qiladi.

Shu bilan birga aniqlangan afzalliklar asosan taqdim etilgan kamchiliklarni qamrab oladi, bu turli mamlakatlarda sanoat klasterlarining rivojlanishini tahlil qilishda keltirilgan ma’lumotlar bilan aniq tasdiqlanadi (1-jadval).

Tadqiqot natijalari hududiy klasterlarni rivojlantirishda raqamli transformatsiya texnologik yangilanish vositasi bo‘lish bilan birga, iqtisodiy munosabatlarni qayta tashkil etuvchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

M. Porter tomonidan ilgari surilgan klaster nazariyasida geografik yaqinlik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi raqobatbardoshlikning asosiy omillari sifatida qaraladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa ushbu omillarga raqamli aloqalar, elektron axborot almashinuvi va platformaviy hamkorlik qo‘shilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy hududiy klasterlarni an'anaviy ishlab chiqarish birlashmalaridan farqlovchi asosiy xususiyat ularning raqamli ekotizim asosida faoliyat yuritishidir.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy va tahliliy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, raqamli transformatsiya hududiy klasterlarning iqtisodiy

faoliyatini tashkil etish va boshqarishning yangi mexanizmlarini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanishi raqamli infratuzilma, ilmiy-tadqiqot salohiyati, investitsion faollik va institutsional hamkorlikning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Uchinchidan, klaster subyektlari o‘rtasida yagona raqamli platformalarni joriy etish ishlab chiqarish, logistika va marketing jarayonlarini muvofiqlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, hududiy klasterlarda oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish innovatsion mahsulotlar va yangi texnologiyalarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-2 sonli farmoni

2. A.Soliyev va Z.Xakimovlar “Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo‘llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari” “Biznez-ekspert”jurnali 2014-yil 1-son, 52-57-bet.

3. Портер М.Международная конкуренция. –М.: Международные отношения, 1993. С.51.

4. Enright, M (1996) “Regional Clustersand Economic Development: A.Research Agenda”, in Staber, U.,Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”. Walter de Gruyter, p.190-213.

5. Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.- Издательская группа “Прогресс”, 1993

6. “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

7. Saidaxmedov, N. (2024). Bandlik beqarorligi (prekarizatsiya) ning nazariy va konseptual asoslari. AndMI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari, 1(1), 332-336.

8. Saidaxmedov, N. (2024). O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishda klaster tizimining o‘rni. Interpretation and researches, 2(15), 82-86.

9. Saidakhmedov, N. (2023). Private property, small business and private entrepreneurship–under state protection. Scientific progress, 4(2), 319

10. Saidaxmedov, N. (2024). Sanoat klasterlarining shakllanishi va rivojlanishi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(11).

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy